

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>M.I.Nurmatova</b>	
Talabalarda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilinishi .....	107
<b>D.B.Mahametova</b>	
Use of information technologies in education.....	112
<b>M.Norinov</b>	
Bo'lajak texnik mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini multimedia vositalari asosida bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi.....	115
<b>G.T.Hojikarimova</b>	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida .....	119
<b>X.M.Jo'rayev</b>	
Kimyo o'qituvchilarining o'zini-o'zi rivojlantirish omillari .....	123
<b>N.B.Odilxo'jazoda</b>	
Kimyo o'qituvchisi kasbiy kompetentligini aniqlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	128
<b>B.T.Tojibayev, S.S.Isokov</b>	
Globalashuv kontekstida – ta'lim .....	132
<b>D.Q.Oxunova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalari.....	136
<b>N.E.Yuldasheva</b>	
Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari .....	140
<b>B.X.Baydjanov, Y.E.Mamatova</b>	
Boshlang'ich ta'limda mediamadaniyat va texnoetikani o'qitish texnologiyasini takomillashtirish.....	144

---

FALSAFA

<b>Б.С.Ганиев</b>	
Социально-политические факторы повышения предпринимательской культуры в Узбекистане .....	150
<b>M.D.Pardaeva</b>	
Uchinchi renessans poydevorini yaratishda Navoiy Naqshbandiyona g'oyalarining ahamiyati.....	156
<b>Z.P.Nadirova</b>	
Intuitive cognition as a synergistic process.....	161
<b>X.X.Raxmatova</b>	
Naqshbandiylik – jahoniy ta'limot .....	165
<b>Z.A.Akhmedova</b>	
Donishning ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish haqidagi fikrlari tahlili.....	170
<b>B.X.Karimov</b>	
Ong muammosining ilmiy – falsafiy va psixologik talqini.....	175
<b>L.M.Karimova</b>	
Jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida ayollarning ijtimoiy mobilligini takomillashtirish mexanizmlari .....	180
<b>M.M.Gulamova</b>	
Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda "Naqshbandiya Tariqati Nazariyotchisi" ta'limotining ahamiyati.....	185
<b>O.T.Sharipova</b>	
Xojagon tasavvufiy ta'limotida "Olam Kabir" haqida .....	189
<b>Sh.B.Sattorova</b>	
Mirzo Abdulqodir Bedilning inson va jamiyat haqidagi ta'limotida adolat va tenglik muammosini o'ziga xos tadqiqi.....	194
<b>B.X.Hamdammov</b>	
Boburning insonparvarlik – falsafiy qarashlari.....	200

**YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINI TARBIYALASHDA “NAQSHBANDIYA TARIQATI NAZARIYOTCHISI” TA’LIMOTINING AHAMIYATI**

**ЗНАЧЕНИЕ УЧЕНИЯ “ТЕОРЕТИК СЕКТЫ НАКШБАНДИЯ” В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

**THE MEANING OF THE DOCTRINE “THE THEORIST OF THE NAQSHBANDIYA SECT” IN THE EDUCATION OF THE YOUTH OF THE NEW UZBEKISTAN**

**Gulamova Munisxon Mahmudovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası o‘qituvchisi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada Xoja Muhammad Porsoning xojagon-naqshbandiya tariqatida amal qiluvchi muqaddas kalimalarga oid fikrlari falsafiy tahlil etilgan. Insonni o‘z zotiga bo‘lgan yuksak ehtiromini shakllantirish orqali uni o‘zini o‘zidan himoya qilishga, mehr-shafqatli bo‘lishga undash olijanob maqsadlari yoritilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье философски анализируются мысли Ходжи Мухаммада Порсо о священных словах, используемых в ордена Ходжаган-Накшбандия. Выделены благородные цели поощрения человека защищать себя от самого себя и проявлять сострадание, формируя высокое уважение к своему виду*

**Abstract**

*In this article, Khoja Muhammad Porso's thoughts on the sacred words used in the Khojagan-Naqshbandiya order are analyzed philosophically. The noble goals of encouraging man to protect himself from himself and to be compassionate by forming a high respect for his species are highlighted.*

**Kalit so‘zlar:** tasavvuf, inson, tafakkur, ilm, vijdon, zikr, yod etish, ijtimoiy hayot, axloqiy yetuklik.

**Ключевые слова:** суфизм, человек, мышление, наука, совесть, поминать, помнить, социальный жизнь, нравственная зрелость.

**Key words:** mysticism, human, contemplation, knowledge, conscience, remembrance, memorization, social life, moral maturity.

**KIRISH**

Yangi O‘zbekistonda rivojlantirishning “Taraqqiyot strategiyasi”dagi ustuvor yo‘nalishlar tizimida ma’naviy merosimizga bo‘lgan e’tibor, yangicha yondashuvni talab etmoqda. Shu ma’noda buyuk mutafakkirlarimizning qator ma’naviy meroslari tarjima qilinmoqda. Ushbu manbalarni ilmiy-falsafiy tahlil etish natijasida ularni munosib baholash va ilmiy muomalaga kiritish muhim vazifalardandir.

Insonshunoslik ta’limoti hisoblangan tasavvufning mohiyati, uning tariqatlari, tariqat asoschilari, ularning ilmiy meroslari ma’naviyatimizning qimmatli durdonalari sifatida o‘rganilmoqda. Shunday tariqatlardan biri naqshbandiya tasavvufiy tariqatining yirik nazariyotchisi Xoja Muhammad Porso asos solgan “Porsoiya” ta’limoti hisoblanadi.

Xoja Muhammad Porsoning asl ismi sharifi Muhammad bin Mahmud al-Hofiz al-Buxoriy (vaf.1419.y.)[1,93] dir. Mutasavvif o‘zining ismi sharifini “Risolai qudsiya” asarida Xoja Shamsiddin bin Muhammad bin Mahmud al-Hofiz, al-Buxoriy [2,B3] shaklida keltirgan. Allomaning “Fasl-ul-xitob” (Qat’iy qaror) asari muqaddimasida Muhammad bin Muhammad bin Mahmud al-Hofizi al-Buxoriy [3,S2], deb yozadi.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Manbalarda Bahouddin Naqshbanddan keyin murshidlik Muhammad Porsoga o‘tganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan[4,84], Muhammad Porso Bahouddin Naqshbanddan keyin mazkur tariqatning nazariyotchisi hisoblangan[5,87]. Xoja Bahouddin Naqshbanddan so‘ng Xojagon-naqshbandiya tariqati ikki yo‘nalishga ajralib ketdi. Birinchi yo‘nalish Xoja Alouddin Attor orqali Xoja Ya‘qub Charxiy (vaf. h.q. 851 y.)ga, undan Xoja Ubaydulloh Ahrori Valiy (vaf. h.q. 895 y.)ga borib taqalsa, ikkinchi yo‘nalish Xoja Muhammad Porso orqali uning o‘g‘li – Abu Nasr Porso (vaf. h.q. 865 y.)ga, undan Nizomiddin Xomushga, undan esa Hazrati Jomiyning murshidi – Shayx Sa’diddin Koshg‘ariy (vaf. h.q. 860 y.) ga yetib, keyingi davrlarda porsoiya, ahroriya, xilvatiya,

kumushxonaviya va mujaddidiya kabi bir qancha tarmoqlar va sho'balarga bo'linib ketdi. Keyingi davrlarda vujudga kelgan naqshbandiya bilan bog'liq biror-bir sho'baning silsilai sharifida Xoja Muhammad Porsoning ismi uchramasada, tarixiy va tasavvufiy manbalarda Naqshbandiya ta'limotining yirik vakili, Xojai Buzurg (Bahouddin Naqshband) ning xalifasi, "Porsoiya" tarmog'ining asoschisi, sifatida tilga olinadi. Porsoiya ta'limoti Naqshbandiya ta'limotining shaxobchasi sifatida Movarounnahr va Xurosonda o'z ixlosmandlariga ega bo'lgan. Chunki, Naqshbandiya ta'limotining keyingi rivoji Xoja Muhammad Porsodan boshlanadi. O'z davrida Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar ham Porsoiyaning ixlosmandlari bo'lganlar, o'zlarini Naqshbandiya tariqatiga mansub deb hisoblaganlar. Xoja Muhammad Porsoni o'zlariga ustoz deb bilganlar asarlarida hurmat bilan u kishining nomlarini tilga olganlar. Alisher Navoiy "Hayratul abror" dostonining "Xoja Muhammad Porsodin haj ahli duo istido' qilmoq va o'g'il Xoja Abu Nasr aning istido'si bila qilmog'i" haqidagi misralarida uning ma'naviy qiyofasini, horiqulodda (nooddiy) holatlarini yuqori darajada ifodalaydi. Bu uning Xoja Muhammad Porsoga va Naqshbandiyalarga bo'lgan hurmatini ham ifoda etadi "Porso" laqabi u kishiga o'ziga xos bir ma'no va o'ziga xos bir tarzda kelganligi ta'kidlangan. Shu ma'noda, Xoja Muhammad Porsoga "Porso" taxallusini Bahouddin Naqshband ixtiyor qilganliklari manbalarda keltiriladi: "Rashohot ayn-ul-hayot" asarida: "Mabodiyi ahvoldakim, Hazrati Xoja Muhammad Porso Bahouddin Naqshbandning mulozamatlarini og'oz etdilar, bir kun riyozat va mujahodot asnosida Hazrat Xojaning uylariga kelib erdilar. Eshikdan tashqarida muntazir turdilar. Ittifoqan, Hazrati Xojaning xodimalaridin bir kanizak tashqaridin ichkari kirdi. Hazrat Bahouddin ondin so'radilar: "Tashqarida kim bor turur?". Ul oytibdur: "Bir javone porsokim, eshikda muntazir turibdur. Hazrat Xoja tashqari chiqdilar va Xoja Muhammadni ko'rib oydilarkim: "Siz Porso (taqvodor, parhezkor, darvesh) ekansiz".Ul kundan so'ng'achakim, bu lafz Hazrati Xojaning muborak tillariga joriy bo'ldi, alsinai afvohga tushub, xizmati Xoja Muhammad bu laqab bilan birla mashhur bo'ldilar"[6,86] -degan ma'lumot o'z aksini topgan. Mazkur ma'lumot Xoja Muhammad Porsoning Bahouddin Naqshband bilan bo'lgan ilk uchrashuvlari va u kishida Porso (taqvodor, parhezkor, darvesh) taxallusini (kitoblarda "laqab" deb kelgan) ega bo'lganliklarini anglash mumkin. U kishining siyrati Bahouddin Naqshbandda birinchi uchashishdayoq parhezkor, taqvodor inson ekanligini anglatgan deyish mumkin. Shu ma'no uning ta'limotining asoslarini ham tashkil etgan. Tasavvufning markaziy muammolaridan biri bu nafs. Shu jihatdan nafsni tanish va uni tarbiyalash yo'llari turlicha bo'lgan. Xoja Muhammad Porsoning ham o'ziga xos konsepsiyasi bo'lgan bu "Porsoiya" ta'limotining nazariy asoslaridan biri hisoblangan. Xoja Muhammad Porso shunday yozadi: "Nafsni adashishdan to'g'rilashning tabiiy bir surati yo'q. Nafsning zarurat chegarasida turishi, nafsning to'g'riligini bilish, nafsning o'z chegarasida saqlashni bilish bilan bo'ladi. Ammo bu ishlar ilmi chigaldir. Nafsni o'sha chegarada ushlab turish mushkul ishdir. Boshlang'ichlarga (tariqat yo'li boshida turgan solik, inson) bu ishlardan xabardor bo'lishi ulug' pining irshodi, yo'l ko'rsatishi va murabbiyning yordamisiz uzrlidir. Chunki, solik (yo'l yuruvchi) hali hanuz nafsning sifatlaridan to'laligicha ajralib xoli bo'lib olgani yo'q. Uning muhabbat nazari nafsiga qaratilishda davom etib, ko'p nasibani o'zining haqqi deb biladi va o'zining haqqi deb o'ylagan narsaga intilishda davom etadi. Bu yo'lda muridga tanbeh berish, uning xatolariga himmat bilan chora topish ustoz Pining vazifasidir"[7,66]. Shu bilan birga u o'zining "Nafs haqqi va nasibasi" konsepsiyasini ilgari surgan. Bunda: **birinchidan**, ustoz bo'lmagan shogirdning o'z nafsini tanimasligi, muhabbat nazari nafsiga tobe' bo'lishi, nafsining haddini saqlab bilmasligi "uzrli" hisoblanadi. **ikkinchidan**, nafs ofatlari ilmini bilish, nafsni riyozat bilan chiniqtirish, yo'l qo'ygan xatolariga chora topish, tanbeh berish tarbiyalash ustozning vazifasidir[8,68].

Insonning qalbini yaxshilik va qobillik urug'larini ekish bu orqali esa, uning olamga yaratilarga muhabbatini ziyoda qilish bilan o'z yaratuvchisini zikr qilishni, shukr qilishni uqtiradi. Mutasavvif Qur'oni karimning "Esla, vaqtiki Robbing farishtalarga: "Men yer yuzida xalifa qilmoqchiman"[1,33], "Jin va insonni faqat Menga ibodat qilishlari uchungina yaratdim"[2,520], degan mazmundagi oyatlarning insonni aziz va mukarramligini, butun borliq hamma narsa uning uchun yaratilganini, yer yuzidagi mavjudotlarning ulug'i, Allohning xalifasi inson ekanligi hamda uni o'zi uchun yaratganini e'tirof etilishining ma'rifatini bayon qiladi. Abdurahmon Sulamiy "Tasavvuf va uning haqiqati haqida muqaddima" asarida inson tushunchasining diniy mazmun mohiyatiga e'tibor qaratadi. Bunda Payg'ambar (s.a.v) ning "Insonning karami-dindir, uning muruvvati aqlidir, obro'si xulqidir",[3,75-76] -degan hadislarini keltirib o'z fikrlarini bayon qilgan.Uning tahliliga ko'ra inson yuqori martablarga ya'ni insoniylik martablariga minnatni tark etish va nafsni qurbon qilish bilan yetishadi. Shuningdek, orifning dastmoyasi xaloyiqqa mehr-muhabbatli bo'lish, odamlar bilan

## FALSAFA

murosa qilish, ularning xatolarini kechirish va ularga mehribonlik qilishda karamli bo'lish muhim sanaladi.

Xoja Muhammad Porso qarashlariga ko'ra, inson aql, zakovat, kuchli iroda, hissiyot, sezgilar, nutqqa egadir. Ruhiiy ma'naviy jihatdan inson nihoyasizdir. Chegarasiz inson ruhiyati moddiy olamda kuzatiladigan fazo, makon va vaqtga bog'liq emas. Inson jismidagi hissiy quvvatlar: ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'mni his etish, shahvatiiy his uni tashqi olam bilan bog'lab, jismoniiy hayotining ehtiyojlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Insonni o'z zotiga bo'lgan yuksak ehtiromini shakllantirish orqali uni o'zini o'zidan himoya qilishga, mehr-shafqatli bo'lishga undash olijanob maqsad hisoblangan. Xoja Muhammad Porsoning inson qolibi haqidagi qarashlarida insonning qolibi ruh uchun yaratilganidek, olami kabirning qolibi bo'lmish koinot ham inson uchun yaratilgan. Inson koinot qolibidagi ruhdur. Xoja Muhammad Porsoning ma'naviiy merosi tasavvuf ta'limotining eng muhim nazariiy masalalariga qaratilganligi bilan o'ziga xos tarzda sunniy tasavvufning o'rta asr bosqichni boshlab berdi. Unda ilk o'rta asr mumtoz tasavvuf davrining yirik mutasavviflari g'oyalarini tiklash, tasavvuf va islom o'rtasidagi bog'liqliklarni ilmiy asoslash muhim o'rin tutadi;

Mutasavvufning inson va uning mohiyati haqidagi qarashlari falsafiiy-irfoniiy ahamiyatga ega bo'lib, boshqa falsafiiy ta'limotlarning ontologik va antropologik xususiyatlariga ta'siri sezilib turadi;

Xoja Muhammad Porso asarlari ko'p jihatdan tasavvuf va uning qoidlari, nazariiy masalalariga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi. Zero, uning asarlari nafaqat Naqshbandiya tariqati va tasavvuf nazariyasi atrofida balki, islom falsafasi, irfon falsafasi, Qur'on va hadis ilmlari, islom tarixi masalalarini ham qamrab olgan. Bu uning Naqshbandiya ta'limotining "Porsoiyya" shaxobchasi murshidi va ta'limoti asoschisi ekanligiga shubha qoldirmaydi.

Xoja Muhammad Porso falsafaning umumnazariiy masalalarini tasavvufiiy va qisman naqshbandiya nuqtai nazaridan hal qila turib, kishilik jamiyatini ma'naviiy-axloqiiy rivojlantirishning yo'llarini aniqlashga harakat qilgan va bu izlanishlarning natijalarini hayotga tadbiiq etish metodlarini ishlab chiqqan. Tarixan Markaziiy Osiyo xalqlari yuksak ma'naviiy va axloqiiy ruhda tarbiyalanib, adolat va insonparvarlikni namoyon etuvchilar sifatida ko'plab xalqlarga namuna bo'lganlar. Bu yo'nalishda naqshbandiylarning ham beqiyos hissasi bor. Shu bilan birga, bu asarlar orqali naqshbandiya tariqati va ta'limoti irfoniiy jihatdan mustahkamlanib, o'ziga xos naqshbandiyona g'oyalar bilan boyitildi va rivojlantirildi. Uning umumislomiiy va umumtasavvufiiy ta'limot darajasiga ko'tarilishiga asos bo'lib xizmat qildi. Xoja Muhammad Porso asarlari fors va arab tilida aralash yozilganligi bilan ham ajralib turadi. Bu Markaziiy Osiyo ijodkorlari orasida kamdan-kam uchraydigan holatdir. Ikkinchidan, Xoja Muhammad Porso arab tilida tasavvuf falsafasining istilohlarini tushunish qiyin bo'lganligi sababli fors tilida izohlab sodda ravon tilda tushuntirishni afzal ko'radi. Xoja Muhammad Porsodan juda boy shaxsiiy kutubxona saqlanib qolgan. Uning mashhur kutubxonasi haqida bir nechta maqolalar chop etilgan. Islomshunos Sh. Ziyodov va A. Mo'minovlar hammualliflikda yozgan "Xoja Muhammad Porso kutubxonasi borasidagi yangi ma'lumotlar" maqolasida uning kutubxonasida saqlangan qo'lyozmalar soni 57 tadan 120 taga yetkazilgani aytiladi. Undan tashqari A. Mo'minov, Ye. Nekrasova va Sh. Ziyodov bilan birgalikda 2009 yilda chop etilgan maqolada [9,117-122] qo'lyozmalar soni 144 taga ko'paygani e'lon qilingan. al-Moturidiyning asarlari ham asosan shu kutubxonada saqlangan. Buxorolik shoir va olim Sadridin Salim Buxoriy bu kutubxona to'g'risidagi eng qiziq ma'lumotni keltirgan. Uning yozishicha, "Buxoro shahridagi Xoja Nurobod ko'chasida nazarnoil maqbara bor. Maqbara ichida tug' ko'tarilgan. Lekin bu yer biror avliyo qabri yoki qadamjoyi emas. Bu yerda hazrat Xoja Muhammad Porsoning kutubxonalari bo'lgan ekan. Dunyoda kitob hurmati uchun hech bir joyda tug' ko'tarilmagan"[10,292].

Xoja Muhamad Porso tasavvufiiy merosi ham tasavvuf va tariqatlar to'g'risidagi bilimlarimizni oshirishda xizmat qiladi. U ilgari surgan g'oyalarga ergashgan uning ezgulikka xizmat qilishini anglagan odam o'z-o'zidan xalq dardu-tashvishlarini yengillashtirishga bel bog'laydi, fikrni-fikrsizlikka, ilm-ma'rifatni-nodonlikka va jaholatga qarshi qurol sifatida ishlatadi. Adolat iymon va e'tiqod kuchiga ishonadi. Qalbida shu ishonch g'olib bo'lgan odamlar jamiyatimizda ko'paysa ijtimoiy muammolar kamayib, eng muhimi diniy bilimsizlik, mahdudlik va chalg'ishlar yosh avlod ongidan tezroq barham topishiga erishish tezlashadi.

**XULOSA**

Xoja Muhammad Porsoning ma'naviy merosi tasavvuf ta'limotining eng muhim nazariy masalalariga qaratilganligi bilan o'ziga xos tarzda sunniy tasavvufning o'rta asr bosqichni boshlab berdi. Unda ilk o'rta asr mumtoz tasavvuf davrining yirik mutasavviflari g'oyalari tiklash, tasavvuf va islom o'rtasidagi bog'liqliklarni ilmiy asoslash muhim o'rin tutadi;

Mutasavvifning inson va uning mohiyati haqidagi qarashlari falsafiy-irfoniy ahamiyatga ega bo'lib, boshqa falsafiy ta'limotlarning ontologik va antropologik xususiyatlariga ta'siri sezilib turadi.

Xulosa qilib aytganda, Uchinchi Renessans poydevorini qurayotgan Yangi O'zbekiston yoshlarini barkamol qilib tarbiyalashda "jamiyatda faol bo'lish", "xalqqa yuk bo'lmaslik", "nafsni tarbiyalash", "ustoz-shogird munosabatlari"ga doimiy e'tibor berish, halol, pok bo'lish kabi g'oyalarni o'rganishning o'rni o'ziga xos ahamiyatlidir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Faxruddin Ali Safiy. Rashohot aynu-l-hayot. Xudoybergan Bekmuhammad tarjimasida.- Toshkent: Abu Ali Ibn Sino, 2004.-B.93.
2. Xoja Muhammad Porso. Risolai qudsiya. Buxoro markaziy ARM Sharq qo'lyozmalari bo'limi. inv. 121/ VIII.-B.3.
3. Porso Xodja Muxammad. Fasl al-xitob li vasl al-axbob. Tashkent, 1331g.l.k. - S. 2
4. Faxruddin Ali Safiy. Rashohot aynu-l-hayot. Xudoybergan Bekmuhammad tarjimasida.- Toshkent: Abu Ali Ibn Sino, 2004.-B.84.
5. Faxruddin Ali Safiy. Rashohot aynu-l-hayot. Xudoybergan Bekmuhammad tarjimasida.- Toshkent: Abu Ali Ibn Sino, 2004.-B.87.
6. Faxruddin Ali Safiy. Rashohot aynu-l-hayot. Xudoybergan Bekmuhammad tarjimasida.- Toshkent: Abu Ali Ibn Sino, 2004.-B.86.
7. Muhammad Porso. Faslul-xitob. Qo'lyozma. Tarjima N.B. -Buxoro: Kogon, Naqshbandiya tariqati muzeyi fondi. Inv.42. 1331.-B.-B.66.
8. Muhammad Porso. Faslul-xitob. Qo'lyozma. Tarjima N.B. -Buxoro: Kogon, Naqshbandiya tariqati muzeyi fondi. Inv.42. 1331.-B.-B.68.
9. Razzoqova M. Ya'qub Charxiy-naqshbandiya tariqatining yirik vakili.// Sharqshunoslik. 1998. 8-son. -B. 117-122.
10. Salimov S. Hikmatdir dunyo.-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2011.-B.292.